

O'ZBEKISTON  
RESPUBLIKASI  
Ona yurti - oltin beshiging

# TONG Yulduzi

№39 (66372)  
2002 yil  
23 sentabr,  
dushanba  
Sotuvda  
erkin narxda

O'zbekiston bolalari va o'smirlarining gazetasi

Gazeta 1929 yil 1 avgustdan chiqib boshlagan.

*Dunyodagi eng mehribon va g'amxo'r  
bobojonimiz*

**ISLOM ABDUG'ANIYEVICH KARIMOVga!**

Assalomu alaykum, bobojon. Biz sizga bu yil maktabga ilk bora qadam qo'ygan ko'p sonli nabiralaringiz nomidan minnatdorchilik izhor qilish niyatida maktub yo'llayapmiz. Mana, bugun biz jonajon bog'cha-maktabimizning maktabga tayyorlov guruhidan shu maskanda tashkil etilgan boshlang'ich maktabning 1-sinfida o'qishni boshladik. Sinfxonaga kirar ekanmiz, bizlar uchun yaratilgan shart-sharoitni ko'rib bir quvonsak, partalar ustiga qo'yilgan Sizing yuborgan sovg'alaringizni ko'rib, o'n bora quvondik. Sizga chin yurakdan rahmat aytgimiz keldi.

Bobojon, Siz haqiqatdan ham dunyodagi eng bolajon, eng mehribon insonsiz, chunki tashvishlaringiz juda ko'p bo'lishiga qaramasdan, har yili ilk bor maktabga qadam qo'ygan nabirangizning birortasini ham yodingizdan chiqarmaysiz. Shunday ekan, biz nabiralaringiz Sizni doimo Ollohning nazarida bo'lishingizni, bizning baxtimizga, qolaversa butun O'zbekiston xalqining baxtiga sog'-salomat bo'lishingizni tilab qolamiz.

1-sinf o'quvchilari.

*Yurtboshiga maktub*



## VATAN MEHRI

Vatan mehri ulug'dir,  
Degan bobom Amir Temur:  
Navoiy g'azal o'qib,  
Beshigim tebratgan Bobur.

Bobolarning so'zlari  
Singdirgan qalbda mehr.  
Bu shundayin bir tuyg'u  
Va tilsimli bir sehr.

Tog'lar kabi buyukdir,  
Quyosh kabi iliqdir.  
Shu mehr-la Vatanimiz  
Sadoqatga to'liqdir.

Mehrinoz ALIYEVA  
Andijon shahri,  
o'quvchi

## MUSTAQILLIK YILLARIDA...

Respublikamiz o'z mustaqilligiga erishganiga 11 yil to'ldi. Bu davr ichida qancha-qancha ezgu ishlar amalga oshirildi. Ko'chalar yanada obod bo'ldi. Yangi-yangi binolar qad rostladi. Kollejlar, akademik litseylar... Eh-he, qay birini aytay.

Hurlik va erk uchun kurashganlar yodi uchun «Shahidlar xiyoboni» barpo etildi. Bu xiyobonning ochilishi xalqning dilidagi gap bo'ldi.

«Umid nihollari», «Universiada», bolalar tennis turniri kabi sport musobaqalarining o'tkazilishi

yoshlarning ma'naviy ham jismoniy tarbiyasida muhim rol o'ynadi. Ayniqsa, bilimdon yoshlar «Umid» jamg'armasi homiyligida Angliya, Yaponiya, Amerika kabi rivojlangan mamlakatlarga borib, ta'lim olib kelishi nur ustiga a'lo nur bo'ldi.

Yurtimizda ana shunday zukko yoshlar bor ekan, ertamiz albatta yorug' bo'ladi. O'zbekiston jahon maydonida mustahkam o'rin egallab boraveradi.

Zulfiya BOBOYEVA,  
Navoiy tumanidagi 9 - o'rta  
maktabning 11-sinf o'quvchisi.

## VI Xalqaro tennis turniri



jamg'armasi, Davlat jismoniy tarbiya va sport qo'mitasi,

O'zbekiston tennis federatsiyasi, O'zbekiston tennisni rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash jamg'armasi va uning Toshkent shahar bo'limi, «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati, O'zbekiston bolalar jamg'armasi,

sinashishdi.

Ushbu tennis turnirida 80 nafar yosh sportchilar bellashgan bo'lsalar, ularning eng saralarigagina g'oliblik nasib etdi. To'rt yo'nalish bo'yicha, ya'ni 1988-89 yilda hamda 1990 yilda tug'ilgan o'g'il va qiz bolalar o'rtasida g'oliblar aniqlandi.

1988-89 yilda tug'ilgan bolalar orasidan toshkentlik Kim Viktor, Vlada Yekshibarovaga birinchi o'rin, andijonlik Timur O'ktamov, toshkentlik Diana Narziqulovaga ikkinchi o'rin, toshkentlik Almaz Akromov

3- darajali diplomlar bilan taqdirlandilar. Turnir tashkilotchilari tomonidan barcha qatnashchilarga to'qqiz yo'nalish bo'yicha maxsus sovrinlar va esdalik sovg'alari topshirildi.

Shundan so'ng turnir ishtirokchilari Olimpiya muzeyi, Temuriylar tarixi muzeyi, «Start» basseyni va Toshkent shahrining eng go'zal joylari va binolari bilan yaqindan tanishdilar. Eng asosiysi «Prezident kubogi» o'yinlarini tomosha qilish imkoniyatiga ega bo'ldilar.

- Turnirda ishtirok

## YOSH TENNISCHILAR BELLASHUVI

Xabaringiz bor, bir necha yildan beri «Sog'lom avlod uchun» xalqaro xayriya jamg'armasi sovrini uchun bolalar o'rtasida xalqaro tennis musobaqalari turniri bo'lib o'tayapti. Buning natijasida yildan yilga tennis muxlislari ko'payib bormoqda.

Bu yilgi turnir esa «Prezident kubogi» xalqaro tennis turnirining navbatdagi o'yinlari bo'layotgan bir vaqtda, ya'ni shu yilning 10-14 sentabr kunlari «Kamolot» sport klubining tennis kortlarida bo'lib o'tdi.

«Sog'lom avlod uchun» jamg'armasi kubogi uchun o'tkazilayotgan navbatdagi VI Xalqaro turniriga ko'plab tashkilotlar homiylik qildilar. Jumladan, «Sog'lom avlod uchun»

«Oltin meros» jamg'armasi, «1 TP LTD» kompaniyasi,

va andijonlik Anna Fedeyevaga uchinchi o'rin nasib etdi.

1990 yilda tug'ilgan o'g'il-qizlar o'rtasidagi bellashuvda andijonlik Jonibek O'rozaliyev, toshkentlik Albina Xabibullinaga birinchi, toshkentlik Arsen Bogdasaryan, Olga Blankka ikkinchi

etishdan maqsadimiz, avvalo mohir tennischilar safidan joy olish va bu bilan O'zbekistonimiz nomini yanada dunyoga tanishtirishdan iborat,- dedi turnir g'oliblaridan biri, andijonlik Timur O'ktamov. - Ilgari o'tkazilgan turnirda g'olib deb topilgan Murod Inoyatov va Farrux Do'stovlar hozirgi kunda katta-katta turnirlarda

ishtirok etib, g'oliblikni qo'lga kiritib kelishmoqda. Biz ham ulardek bo'lishga harakat qilamiz.

G'oliblar ro'yxatini ko'zdan kechirar ekanmiz, asosan toshkentlik va andijonlik yosh tennischilarga joylarda katta e'tibor

berilayotganining guvohi bo'lamiz. Qani endi har bir viloyatda sportning tennis turiga ham jiddiy e'tibor berilsa.

Feruza ODILOVA.


Prezident kubogi turniri tashkilotchilari, «Koka - Kola» ichimligi «O'zbekiston LTD» kompaniyalari turnirning yanada jonli o'tishiga ko'mak berdilar.

Turnirda Qoraqalpog'iston Respublikasi, Toshkent shahri va

viloyatlardan to'rt nafardan yosh tennischi yigit-qizlar ishtirok etdilar. Shuningdek, Qirg'iziston, Qozog'iston va Rossiya Federativ Respublikasidan kelgan tennischilar o'zaro kuch

hamda toshkentlik Nail Xabiyev va Nigora Sirojiddinova uchinchi o'rin sohibi bo'lishdi.

Turnir g'oliblari maxsus tayyorlangan «Sog'lom avlod uchun» kubogi hamda 1-, 2-,





Tarixsiz kelajak bo'lmaganidek, otabobolarimizdan meros an'analarimizni saqlab qolishimiz, ularni hayotimizning bir bo'lagi deb bilishimiz lozim. Shu maqsadda turli tadbir va tanlovlar tashkil qilinmoqda. «Boysun bahori», «Baxshilar tanlovi», «Barhayot an'analar» ko'rik-tanlovlari shular jumlasidandir.

Tarixdan ma'lumki, sho'rolar davrida milliy odatlarimiz ta'qiqlab qo'yilgan, eskilik sarqiti deb

BARHAYOT AN'ANALARI - 2002  
uni tagtomiri bilan yulib tashlamoqchi bo'lganlar. Ammo yuragida milliy urfodatlarimizga bo'lgan muhabbati so'nmağan qariyalarimiz ularni avaylab-ardoqlab, biz yoshlarga yetkazishyapti.

Kuni kecha O'zbekiston Milliy bog'ida Toshkent shahar tumanlari o'rtasida «Barhayot an'analar» ko'rik-tanlovining yakuniy bosqichi bo'lib o'tdi. Har bir tumanning o'ziga xos va mos odatlari mavjud. Shu kuni maydon

sharqona libos sanalmish atlas ko'ylakli qizlaru beqasam to'n kiygan yigitlarga to'lib ketdi. Tanlovni Toshkent shahar xotin-qizlar qo'mitasi raisi Farida Yo'ldosheva tabrik so'zlari bilan ochib berdilar. So'ng turli ko'rinishdagi beshik to'yi, kelin salom, yor-yorlar ijro etildi. Quvonarlisi shuki, bu betakror an'analarimizni yoshlar juda

k a t t a

mahorat bilan namoyish etdilar. Har bir tuman tayyorlab kelgan folklor ko'rinishlari o'zgacha bir olam edi. Shuning uchun ham g'olib jamoani aniqlash hakamlar zimmasiga katta mas'uliyat yukladi. Tanlovda hammaning olqishiga sazovor bo'lgan «Chilonzor» tumani folklor jamoasini g'olib deb topdilar va ularga homiylarning sovg'alari topshirildi.

*Shahnoza PIRMATOVA,  
Alisher Navoiy nomli Nafis san'at  
litseyining 11-sinf o'quvchisi.*



Mana, bolajonlar yana sevimli orasida tutgan o'rni, bilim va salohiyati maktablari quchog'idalar. Ayni inobatga olinmoqda.

**YANA BIR YANGILIK**  
Shu kunlarda Toshkent viloyatida istiqomat qiluvchi o'quvchilarni tashkilotga qabul qilishga kunlarda esa ular bag'ishlangan tadbirlar bo'lib hayotida yana bir o'zgarish ro'y o'tmoqda. Siz suratda ko'rib turgan bermoqda. Eng faol, aqli, bilimdon, Toshkent viloyati, Bo'ka tumanidagi 11-zukko va sog'lom o'quvchilar Bolalar litsey o'quvchilarining bugun tashkilotiga qabul qilinmoqdalar. quvonchlarini cheksiz. Endi ular o'z Tashkilotga a'zo bo'layotgan har bir tashkilotlariga a'zo bo'ldilar. o'quvchining eng avvalo jamoat ishlaridagi faolligi, tengdoshlari

«Kamolot» YOIH Toshkent viloyati kengashi Matbuot xizmati.

Prezident asarlarini o'rganamiz

## MILLIY ISTIQLOL G'OYASI: ASOSIY TUSHUNCHA VA TAMOYILLAR

(Davomi. Boshi o'tgan sonlarda.)

«Hech qaysi mafkura davlat mafkurasi sifatida o'rnatilishi mumkin emas».

Bu qoida O'zbekistonda faoliyat ko'rsatayotgan partiyalar, harakat va ijtimoiy-siyosiy guruhlardan birortasining dasturiy g'oyalari yagona davlat mafkurasi bo'la olmasligini anglatadi.

Milliy istiqlol mafkurasi turli siyosiy partiya va ijtimoiy guruhlar mafkurasidan ustun turadigan sotsial fenomen — ijtimoiy hodisadir. Bu mafkurada biron bir dunyoqarash mutlaqlashtirilmaydi yoki u mavjud siyosiy hokimiyatni mustahkamlash maqsadida siyosiy qurolga aylantirilmaydi. Milliy istiqlol mafkurasi, o'z mazmun-mohiyatiga ko'ra, O'zbekistonning ijtimoiy-siyosiy taraqqiyotiga xizmat qiladi, barcha siyosiy partiyalar, guruh va qatlamlarning — butun xalqimizning quyidagi umumiy manfaatlarini ifodalaydi:

— mamlakatning mustaqilligi, hududiy yaxlitligi, sarhadlar daxlsizligi;

— yurtning tinchligi, davlatning harbiy, iqtisodiy, g'oyaviy, ekologik, informatsion tahdidlardan muhofaza etilishi;

— mamlakatda fuqarolararo va millatlararo totuvlik, ijtimoiy barqarorlik muhitini ta'minlash;

— har bir oila va butun xalqning farovonligi;

— jamiyatda adolat ustuvorligi, demokratiya, o'z-o'zini boshqarish tamoyillarining amal qilishi.

Istiqlol mafkurasi tom ma'nodagi milliy mafkuraga aylanishi uchun quyidagi talablarga javob berishi zarur:

— inson qalbi va ongiga ijobiy ta'sir etadigan tushuncha va tuyg'ular, go'zal va hayotiy g'oyalar tizimini o'zida mujassam etishi;

(Davomi bor.)



Mustaqilligimizning 11 yilligiga bag'ishlangan turli tadbirlar va bellashuvlar hali ham davom etmoqda. Biz ham yaqinda «Mahallamiz

saylandi. Bellashuv juda qiziqarli o'tdi. Har ikkala mahalla yoshlari birinchilikni qo'ldan bermaslik uchun astoydil harakat qildilar. Nihoyat bellashuvning hayajonli daqiqalari yetib keldi. Hamma kim g'olib bo'lgan ekan, deb qiziqishardi. Hakamlar bellashuv 58-60, Amir Temur yoshlari g'alabasi bilan yakunlanganini e'lon qildilar. Har ikkala guruh a'zolariga homiylar tomonidan esdalik

## MAQSAD G'ALABA EMAS

bolalari» bellashuvining final bosqichini o'tkazdik. Unda Amir Temur mahallasi qizlardan tashkil topgan «Sevinch» hamda Yangiobod mahallasining o'g'il-qizlaridan tashkil topgan «Lochin» guruhlari bellashdilar. Bellashuvni odilona baholab borish uchun hakamlar

sovg'alari ulashildi. Bellashuvdan maqsad g'oliblik emas, do'stlik edi. Har ikki mahalla yoshlari bellashuv davomida samimiy do'stlashib oldilar.

*Sevara AXROROVA,  
Samarqand viloyati,  
Oqdaryo tumanidagi  
23 - maktabning  
9 - «A» sinf o'quvchisi.*

## SHE'RIYAT SHAYDOSIMAN

Yoshligida qalb jomi muhabbatga limmo-lim to'lganda qo'lga qalam olib she'r yozmagan, pinhona o'tirib uzundan uzun maktublar bitmagan inson bo'lmasa kerak. Shundaylar safi yana bittaga ko'paydi, desam ham bo'laveradi. Men ham yaqindan boshlab she'r yozadigan, ularni birovdan berkitadigan odat chiqardim. She'rlarim mavzusi nafaqat ishq haqida, balki ota-onaga mehr, Vatanga muhabbat, tabiat ta'rifi, go'zallik tarovatiga ham bag'ishlangan. Ularni adabiyot o'qituvchimga ko'rsatib, u yer- bu yerlarini tekislayapman. Kelajakda sevimli gazetam sahifalarida she'rlarimni ko'rsam, juda xursand bo'lardim.

*Rayhona G'ANIYEVA,  
Buxoro viloyati, Shofirkon tumanidagi  
19 - maktabning 8-«A» sinf o'quvchisi.*

## TOSHKENT BOLALAR PARLAMENTIDA

Shu yil poytaxtimizda Toshkent Bolalar Parlamenti tashkil qilinganidan xabaringiz bordir. 19-23 avgust kunlari ana shu parlamentning birinchi sessiyasi bo'lib o'tdi. Sessiyada mamlakatimizning barcha tuman va shaharlaridan 219 nafar o'smirlar ishtirok etdilar.

Deputatlar konstitutsiya, uning demokratik prinsiplari, bola huquqlari masalalariga bag'ishlangan bahsmunozaralarda ishtirok etdilar. Oliy Majlis qo'mita a'zolari, deputatlar bilan uchrashdilar.

Endi parlament haqida ozgina tushuncha berib o'tsam. Bolalar parlamentiga 14 dan 17 yoshgacha bo'lgan, xulqi, o'qishi, jamoat ishlaridagi faolligi bilan tengdoshlariga namuna bo'ladigan o'quvchilar tanlov asosida a'zo qilinadilar. Ular o'z nizomlariga ko'ra bir yilda ikki marotaba ta'til davrida sessiyalarini o'tkazadilar. Har bir yosh deputat o'zi istiqomat qiladigan tuman, mahalla, maktablarda sessiyada olgan bilimlarini tengdoshlariga yetkazib, ularni mustaqil hayotga tayyorlash, ijtimoiy faolligini oshirishga o'z hissasini qo'shishi lozim bo'ladi.

Bu kabi tashkilotlarning ko'payib borishi, biz yoshlarni yaxshi o'qishga, mehnat qilishga va jamiyatda o'z o'rnimiz, aytar so'zimiz bo'lishi kerakligini anglab yetishga undaydi.

*Munisaxon AHMAD XO'JAYEVA,  
116 - maktabning 8- «B» sinf o'quvchisi.*

## «SHIRINTOY»DA CHIYAPMAN

Maktabga chiqmasimdan oldin «Kelajak tongi» radioeshittirishini sevib tinglar va uni olib borayotgan o'quvchilarga havasim kelardi. Qani endi men ham ulardek eshittirishlar olib borsam, deb orzulardim. 3-sinfga o'tganimdan so'ng onam meni O'zbekiston radiosining bolalar ovoz yozish studiyasiga olib bordilar. U yerda men kabi bolalar juda ko'p ekan. Ovozim, nutqimni eshitib ko'rishdi va «Shirintoy» eshittirishiga olishdi. U yerga bir-ikki marta qatnagandan keyin shuni bildimki, bolalar bilan ishlash juda qiyin ekan. Ovoz yozuvchi Mavluda opa Olimxonova, Durдона opa Abdullayevalar sabr-toqat bilan ishlab, 20 daqiqagina davom etadigan eshittirish uchun 2 soatdan ko'p mehnat qilar ekanlar. Men bu mehribon va shirinso'z ikki opalarimizga rahmatlar degim keldi.

*Shahzoda RIZAYEVA,  
«Orom» nomli bog'cha-maktabning  
4- «G» sinf o'quvchisi.*

«Qarisi bor uying parisi bor», deydi dono xalqimiz. Bizning uyimiz ham ana shunday fayzli xonadonlardan biri. Xonadonimiz ko'ri bo'lmish buvijonim Marhamat ayani mahalladagilar «ziyo ulashuychi buvijon» deyishadi. Bu bejiz emas, albatta. Ular 40 yil mobaynida ko'z shifokori bo'lib ishladilar. «Zar qadrini zargar biladi» deganlaridek, buvim ko'zning naqadar bebaho ne'mat ekanligini juda yaxshi biladilar. Bizlarga ham ko'zlarimizni asrashimiz lozimligini ta'kidlab, nasihat qilib turadilar.

- Mening sizlarga aytar so'zim, ko'zlarimizni yoshlikdanoq asrang. Buning uchun qorong'i xonada o'qish yoki yozish

## SHIFOKOR BUVIJONIM

mumkin emasligini doimo yodda saqlang. Yorug'lik o'ng tomondan tushishi lozim. Kitobni yarim soat o'qib, ko'zga tez-tez dam berib turish lozim. Kitob bilan sizning orangizda 35-40 sm. masofa bo'lishi kerak. Agar ko'zga hadab quyosh nuri tushaversa, ko'zda allergiya paydo bo'lishi mumkin. Buning oldini olish uchun ko'zga quyosh nuridan

himoyalovchi ko'zoynak taqishingiz kerak. Bir yilda bir marta bo'lsa ham ko'z shifokori nazoratidan o'tishingiz, agar ko'rish qobiliyati ozgina pasaygan

bo'lsa, darhol ko'zoynak taqishingiz kerak. Chang,



tuproq ko'zga tushsa, salbiy oqibatlariga olib keladi. Ko'z toliqqanda, kechqurun uxlashdan oldin ko'z tez-tez ochib yumilsa, ko'zga ancha dam va foyda bo'ladi. Mana

shu maslahatlarimga amal qilsangiz, ko'zingiz hech qachon og'rimaydi va ko'rish qobiliyati pasaymaydi, - deydilar buvijonim. Ularning bu maslahatlariga tengdoshlarim ham amal qilsalar, foydadan xoli bo'lmaydi, deb o'ylayman.

Shu kunlarda buvijonimning tavallud ayyomlari bo'ladi. Ularni barcha oila a'zolarimiz nomidan chin dildan qutlab, baxtimizga omon bo'ling, shifokor buvijonim, deyman.

**Malika  
ABDUVOHIDOVA,  
Yunusobod tumanidagi  
12 - maktabning 9-sinf  
o'quvchisi.**

Oilamizni «Pedagoglar sulolasi» deb atashadi. Bunday atalishiga buvajonim Dalaboy aka Tursunov hamda mehribon buvijonim Ximoliya ayalar sababchidirlar. Buvam yoshlikdanoq muallimlikka m e h r

o'qituvchilar. Ular matematika fanidan saboq beradilar. Har ikkalalari ham ko'plab shogirdlar yetishtirganlar. Biz nabiralariga beradigan

bilimlari, pandu nasihatlarini aytmay ham qo'ya qolay. Buvam va buvijonimga hammaning havasi keladi. Zero, o'z umrini, hayotini bolalarga bag'ishlab, xalqi uchun fidoyi mehnat qilish, farzandlari ardog'ida yashash eng katta baxtdir. Men ham shu sulolaning kenja vakili e k a n l i g i m d a n faxrlanaman.

Yaqinda buvajonim o'z tavallud kunlarini nishonlaydilar. Men ularni tavallud kunlari hamda ustozlar bayrami bilan chin qalbimdan muborakbod etaman.

**Malohat TO'XTAYEVA,  
Poytaxtimizdagi  
116 - maktabning  
8- «B» sinf o'quvchisi.**

qo'yg'an ekanlar. Jonkuyar ustozlar qo'lida tahsil olib, kelajakda ular yo'lidan ketishga ahd



qilibdilar. Mana 49 yildirki, ustozlik kasbini ardoqlab, maktab rahbari lavozimida ishlab kelmoqdalar.

Buvijonim Ximoliya aya ham 49 yildan buyon oliy toifadagi


## DUGONAM SHOIRA BO'LSIN

Shahnoza ismli bir dugonam bor. Barcha fanlardan a'lo baholarga o'qiydi. Hatto she'rlar ham yozadi. Men uning buvisiga juda hayron qolaman. Yoshlari bir joyga borib qolgan bo'lsa-da, maktabimizga tez-tez kelib turadilar. Nabiralarining xulqi, o'qishlari haqida surishtirib, barcha o'qituvchilarga uchrashib ketadilar. Shahnozaning kelgusida ajoyib shoira bo'lishini orzulaydilar.

U kishi Shahnoza va ukasiga onalik mehrini berib, ardoqlab katta qilmoqdalar. Shunda ayrim mehsiz, bolalariga yetarlicha e'tibor qila olmaydigan ot-onalar haqida o'ylab qolaman...

Men ham buvisi kabi uning kelajakda mashhur shoira bo'lib yetishishini istayman va dugonamga omad tilayman.

**Sevara HAKIMOVA,  
Buxoro viloyati,  
G'ijduvon tumanidagi  
48 - maktabning  
3-sinf o'quvchisi.**





Maktabimiz Sirdaryo viloyati, Sh.Rashidov tumanidagi «Bo'ston» shirkatlar uyushmasi hududida, moslashtirilgan binoda joylashgan.

Unda 560 nafar o'quvchi ta'lim-tarbiya oladi. Ularga 40 dan ziyod bilimdon murabbiylar saboq berishadi.

O'qituvchilarimiz ijobiy ma'noda tinib-tinchimaydigan, o'z o'quvchilarini ham tindirmaydiganlardan.

Tarix fani o'qituvchisi Buvxol Gapparova rahbarligidagi bir guruh o'quvchilar tabiatni asrashga doir qo'llanma yaratdilar. U o'quvchilarni

## TINCHLIK BOR BO'LSIN

Maktabimizda har bir fanga katta e'tibor beriladi. Ko'plab to'garaklar, klublar faoliyat ko'rsatadi. Biz o'quvchilar bo'sh vaqtlarimizni ana shu to'garaklaru klublarda o'tkazamiz.

Ko'rik-tanlovlarda, bellashuv va fan olimpiadalarida faol qatnashamiz. Har bir tadbirimizni bayramdek o'tkazishga harakat qilamiz.

Bu kabi bayramlar tinchlik va xotirjamlik bo'lgan yurtgagina yarashadi. Dunyodagi barcha tinchliksevar kuchlar kabi biz ham tinchlik tarafdorimiz.

Hozirdanoq puxta bilim olib, Vatanga sodiq, yurtga fidoiy farzandlar bo'lib yetishishga so'z beramiz.

*Gavhar ESONOVA,  
10-«A» sinf o'quvchisi.*



atrof-muhitni ozoda saqlashga, ichimlik suvini tejashga, oqava suvlarni toza tutishga chorlaydi. Ustoz tashabbusi bilan maxsus darslar tashkil qilinib, o'quvchilar o'rtasida

## FAXRLANSAK ARZITYDI

tushuntirish ishlari olib borildi. Qilingan mehnat o'z samarasini berdi. Maktabimiz o'quvchilari



## TO'YGA TO'YONA

Maktabimiz 1977 yilda tashkil etilgan. Bu davr mobaynida ko'plab ajoyib insonlar yetishib chiqdi. Bugungi kunda ular Vatana ravnaqi, yurt osoyishtaligi yo'lida xizmat qilishmoqda.

Barcha ustozlarimiz mehribon, shu bilan birga qattiqqo'ldirlar. Ularning bilimdonliklari bois, biz fanlarni o'zlashtirishda qiynalmaymiz.

Bu yil maktabimizning 25 yilligi nishonlanadi. Biz o'quvchilar ushbu to'yga katta tayyorgarlik ko'rayapmiz. Avvalo a'lo o'qishimiz, namunali xulqimizni to'yona qilmoqchimiz.

*Farida  
OQMURODOVA,  
10- «B» sinf  
o'quvchisi.*

Respublika miqyosida bo'lib o'tgan «Tomchi suvda hayot jilvasi» ko'rik-tanlovida ishtirok etib, g'oliblikni qo'lga kiritdilar.

«EKOSAN» xalqaro jamg'armasining qimmatbaho sovg'alari, Xalq ta'limi vazirligining 1-darajali diplomlari bilan taqdirlandilar. Shuningdek, maktabimizga kompyuterlar sovg'a qilindi. O'quvchilarimiz ushbu yutuqlardan ruhlanib, kelgusida bu kabi ishlarni davom ettirishga so'z berdilar.

*Abdurasul  
SHODMONQULOV,  
15 - maktab direktori.*

## UYALIB QOLMADIK

Biz o'quvchilar barcha tadbirlarda faol bo'lishga harakat qilamiz. «Intilganga tole yor» deganlaridek tuman, viloyat va Respublika tanlovlarida qatnashib, g'oliblikni qo'lga kirityapiz.

Yaqinda Respublika miqyosida o'tkazilgan «Tomchi suvda hayot jilvasi» ko'rik-tanlovida ishtirok etdik va birinchi o'rinni egalladik.

Shuning uchun ham bizni poytaxtga Respublika ta'lim markazida bo'lib o'tgan seminarga taklif qilishdi. Biz seminarda ekologik ta'lim haqida chiqish qildik. Seminarda chet ellik mehmonlar ham bor edi. Shuning uchun ham biz uch tilda - o'zbek, rus va ingliz tillarida so'zladik. Chiqishimiz chet ellik mehmonlarga ham ma'qul bo'ldi shekilli, biz bilan suratga tushishdi. Maktabimiz, o'qishimiz bilan qiziqishdi.

Ingliz tilini puxta o'rganganimiz uchun ular oldida uyalib qolmadik.

*Farida PARMONOVA,  
10- «A» sinf o'quvchisi.*

## Mustaqil yurt bolalari iqtidorlidir

Navoiy viloyatining Navbahor tumanida so'lim bir qishloq bor. Nomi ham g'alatiroq — Keskanterak. Keksalarning aytilishlaricha, bu qishloq to'ylari qo'shig'u raqslarga, ichak uzdi askiyalarga ulanib, tong otguncha davom etarkan. Chunki, keskanterakliklar

san'atga oshno, ezgulikka tashna odamlar ekan. Ularning askiyalari boshqa hech bir joyning askiyalariga o'xshamaydigan, o'ziga xos keskanterakcha askiyalar ekan.

Hikoyamiz Keskanterak askiyalariyu laparlari haqida emas. Aksincha, ularni yaratayotgan san'atkor xalq haqida. Yanayam aniqrog'i, shu xalqning farzandi — Visola Majidova haqida. San'atga oshufta qiz sizning tengdoshingiz. U birinchi sinfdanoq maktabidagi «Binafsha» ashula va raqs dastasiga qatnashib kelmoqda. Shu bilan birga tumandagi 2-bolalar musiqa maktabining fortopyano bo'limida ham tahsil olgan.

-Maktabimizdagi biror tadbir Visolasiz o'tmaydi. Uning chiqishlari barchani hayratga soladi, - deydi Visolaning ustozlaridan biri Dilshoda Toyirova. Dilshoda opaning gaplariga qo'shimcha qilib aytadigan bo'lsak, Visola san'atini birgina maktab misolida emas, butun bir Respublika miqyosidagi shodiyonalarda namoyish qilib kelmoqda. 1998-2000 yillarda

Toshkent, Xorazm va Samarqand shaharlarida o'tkazilgan «O'zbekiston — Vatanim manim» Respublika qo'shiq ko'rik-tanlovlarini, Toshkent shahrida o'tkazilgan umumnavro'z va Mustaqillik

2002 yil aprel oyida Mukarrama Turg'unboyeva xotirasiga bag'ishlangan raqs ko'rik-tanlovidagi g'oliblik nashidasi ham Visolani chetlab o'tmadi. To'g'rirog'i, Visola uni chetlab o'tmadi. Viloyat miqyosida 2-o'rinni qo'lga kiritdi.

Visola Majidova nafaqat raqqosa, qolaversa, qo'shiqchi. Kezi kelganda ijodkor-shoira hamdir. Tez-tez tuman va viloyat gazetalarida, Respublika bolalar nashrlarida maqola va she'rlari chop etilib turadi.

-Hali yosh bo'la turib, shuncha narsaga qanday qilib vaqt topasan, - degan savolimizga Visola

«Agar astoydil harakat qilinsa, hamma narsaga ulgursa bo'ladi. Men hovli supurayotib raqsga tushaman, ovqat pishirayotib qo'shiq kuylayman, gullarga suv quyayotib she'rlar to'qiyman», deb javob qaytardi. Undagi g'ayratu shijoatni ko'rib, tinib-tinchimas qizaloq, ustozlarning faxri bo'lgan, Qori Niyoziy nomidagi maktabning 8- «A» sinf o'quvchisi Visola Majidovaning san'atdan saodat topishiga juda-juda ishonib qaytdik.

Nosir BOYMIRZAYEV.

## ORZULARI BIR OLAM

bayrami tantanalarini sanab o'tish mumkin. «Keskanterak» folklor-etnografik dastasining raqqosa qizlari safida xirom etayotgan Visolaning o'sha paytdagi sevinchini ta'riflash qiyin.

- Millionlab kishilarning nigohi bayram sahnasiga qaratilgan. To'lqinlanib ketgan bo'lsam kerak, ko'zlarimdan yosh chiqib ketdi, - deydi Visola.

Mana shu hayajonli damlar 13 yoshli qahramonimizning g'ayratiga g'ayrat qo'shgan bo'lsa, ajabmas. Chunki, viloyat va Respublika televideniylarining «Qishloq hayoti», «Qo'shig'im, jon qo'shig'im», «Oltin meros» ko'rsatuvlaridagi ishtiroki, «Shu aziz Vatan — barchamizniki» Respublika festivalining Navoiy viloyati kunlarida «Keskanterak» folklor dastasi bilan birgalikdagi chiqishlari Visolaning iste'dodi kundan-kun kurtak yozayotganidan darak beradi.



## BOG'CHA BOLALARI SAHNADA

Erta tongda onasining qo'lidan tutib, bog'chaga harxasha qilib ketayotgan

bolajonlarni ko'p uchratamiz-a? Jizzax viloyati, Mirzacho'l tumanidagi «Dilnoza» nomli bolalar bog'chasida tarbiyalanuvchilari esa har tong qadrdon bog'chalari quchoqiga o'ynab-kulib o'tlanishadi. Sababi, ularning har bir kunlari maroqli, sermazmun, quvnoq bellashuvlaru qiziqarli mashg'ulotlarga boy o'tadi. Bolajonlar mehribon



tarbiyachilari boshchiligida turli ertaklarni sahnalashtiradilar.

Suratda: «Zumrad va Qimmat» ertagi asosidagi sahna ko'rinishining ijrochilari ham, tomoshabinlari ham bolajonlarning o'zlari bo'lishdi.



# QOVOQVOYNING

(2 pardali, 7 ko'rinishli ertak. Yangi varianti.)

**(Davomi. Boshi o'tgan sonlarda.)**

**Sehrgar:**

Izlaganingiz  
Qovoq,  
Huzuringizda shu  
choq!

**O'rgimchakkana:**

Sehrgar ota, qoyil,  
Men ishondim  
astoydil.

Sehrgar, ruxsat sizga,  
Uni qoldiring bizga.

**Sehrgar:**

Ko'z oldimda topshiriq  
Bering, bajarar to'liq.

**O'rgimchakkana:**

O'rtamizda ko'pdir  
gap,

U ketdi bizni aldab.

**Sehrgar:**

U hali juda so'tak,  
Unga kerak  
O'rgatmak.

**O'rgimchakkana:**

Bajarilmadi buyruq,  
Nima bo'ldi, huv,  
urug'?

**Qovoqvoy:**

Yerga ko'mib  
qo'yuvdim,  
So'ng yo'qotib  
qo'yuvdim,  
Topolmayapman  
sira.

*(Indamay yerga  
qarab turadi.)*

**Sehrgar:**

Esi anchayin xira,  
Xatosin tuzatamiz,  
Urug'larni topamiz.

**O'rgimchakkana:**

Qancha so'rasangiz  
pul  
Ikki bor to'lay  
nuqul,  
Menda-chi, boylik

katta,  
Sevinasiz albatta.

**Sehrgar:**

Menga kerak emas haq,  
Bunaqa demang mutlaq.

**O'rgimchakkana:**

Bizning ko'pimiz o'ldik,  
Judayam jondan to'ydik.

**Sehrgar:**

Attang, bo'lmabdi  
yaxshi,  
Hammayoq sizga  
qarshi.

**O'rgimchakkana:**

Qayga borsak  
cho'chiymiz,  
Yetmayapti  
kuchimiz.

**Sehrgar:**

*(Qovoqvoyga  
yolg'ondakam do'q  
urib.)*

Va'da berdingmi — bajar!

Bajarmasang-chi agar,  
Seni derlar betayin.

**O'rgimchakkana:**

Menga ma'qul gapingiz,  
Tegsa zora nafingiz.

**Sehrgar:**

Xo'p, mayli, men ketayin,  
Urug'larni topaman,  
Qovoqvoy aybin  
yopaman.

Men kimga bo'lsam  
kerak,

Uch bora chalsa  
chapak,

O'sha yerda men  
borman,

Xizmat uchun  
tayyorman.

**O'rgimchakkana:**

*(Go'yo hurmat  
qilganday  
o'rnidan turadi.)*

Askarlarimga

aytay,  
Sizni topishar atay.

Ularga bering yordam,  
Xursand bo'laman har  
dam.

**Sehrgar:**

Shart bo'yicha, albatta,  
Men bo'laman uvatda.  
*(Qovoqvoyni yetaklab  
chiqib keta boshlaydi.)*

PARDA



## YETTINCHI KO'RINISH


*(Birinchi ko'rinishdagi  
paxtazorning cheti —  
uvat, Chigirtka, Ko'sak  
qurtlari chopib  
o'tishadi. Sahnaning  
o'ng tomonidan  
Oysholg'om, Lavlagijon  
hamshiralar sumkasi,  
bir quloch shprintsni  
ko'tarib kelishadi.)*

**Oysholg'om:**

Tutqizmasdan  
Chigirtka  
Qochib ketdi, huv  
chetga.

**Lavlagijon:**

Biri esa Ko'sak  
qurt —  
G'o'zani qilar  
nobud.  
Qo'limga  
tushsa  
bormi,



Yorar edim naq qomin.

**Oysholg'om:**

Qovoqvoy bizdan doim  
Qochib yurar.

**Lavlagijon:**

U balkim  
Ukol qilar deb o'ylar,  
Hech kimga aralashmay  
Yordam berar qarashmay,  
Yolg'iz bir o'zi o'ynar.

**Oysholg'om:**

Adashmay yursa mayli  
Qovoqligi tufayli.  
*(Ular chiqib ketishadi.  
Xomush holda  
Qovoqvoy kirib keladi,  
izidan Sehrgar paydo  
bo'ladi.)*

**Qovoqvoy:**

Salom Sehrgar bobo,  
Qaydan bo'ldingiz paydo?

**Sehrgar:**

Ey, Qovoqvoy, ishlar ko'p,  
Nima desam, degil xo'p.  
Ko'sak qurt, Chigirtkani  
Ushlaymiz endi, qani.  
Mana bu uzun arqon,  
Sirtmoq solamiz chaqqon.

**Qovoqvoy:**

Sehrgarsiz-ku axir,  
Qila qoling-da, sehr.

**Sehrgar:**

Hasharotlarga balkim,  
O'tmaydi mening sehrim.  
Qo'rqma ikkov ushlaymiz,  
Ko'ngillarni xushlaymiz.  
Ko'sak qurt, Chigirtkani  
Imlab qo'ygin men tomon.  
Kelib qolsa Chigirtka  
Kesak otgin bir chetga.

**Qovoqvoy:**

*(Qo'rqib.)*  
Qarang, bobo, Ko'sak  
qurt  
Bitta o'zi kelmoqda.

**Sehrgar:**

Sen o'zingni dadil tut,  
Ushlaymiz yaqinroqda.





# SARGUZASHTI

Po'lat MO'MIN

(Bekinadi. Ko'sak qurti kiradi).

**Ko'sak qurti:**

Nega qo'rqmay bir o'zing — O'ltiribsan, Qovoqvoy! Chigirtkavoyga ko'zing — Tushgandir-a, hoynahoy?

**Qovoqvoy:**

Yaqinda ko'rdim uni, Olib ketdi urug'ni. Seni, kelsa agarda, Tursin dedi shu yerda.

**Ko'sak qurti:**

(Bir chetga o'tiradi.) Meni quvdi Oysholg'om, Qo'lga tushsam, ishim xom —

Bo'lar edi. O'lardim.

**Qovoqvoy:**

Qutular eding balkim.

**Ko'sak qurti:**

Qutulish qayda deysan, Nayzasin ko'rganmisan? Nega kerak bu arqon?

**Qovoqvoy:**

Ha, nimalar degansan, Xo'p aldagan ekansan. Seni bog'layman hozir! Mendan yegaysan ta'zir.

(Qovoqvoy arqonni olib Ko'sak qurtiga otadi.

Olishadilar. Qurt chaqqonlik qilib

Qovoqvoyning o'zini bog'lay boshlaydi,

Qovoqvoy sehgarni chaqirolmay qoladi.

Birdan Sehrgarning o'zi keladi. Uning

yordamida Qovoqvoy ozod bo'lib, uni ikkovi bog'lashadi.)

**Sehrgar:**

Yasha Qovoqvoy, qoyil, Doim bo'laver dadil.

(Chigirtkaning qadam tovushlari eshitiladi.)

**Qovoqvoy:**

Chigirtka kelayotir.

**Sehrgar:**

Olma sira xavotir!

(Ikkalasi bekinishadi.

Chigirtka o'ynab kirib keladi-da, Kesak qurtiga ko'zi tushadi.)

**Chigirtka:**

Bechora Ko'sak qurti

Rosa sho'ring quribdi.

(Arqonni

yechmoqchi

bo'lib

urinayotganida

Qovoqvoy

bilan

Sehrgar

bostirib

kirishadi.

Uni ham

arqonning

qolgan qismiga

bog'lashadi.)

**Sehrgar:**

(Qovoqvoyga.)

Mahkam qilib bog'layver,

Bir yaxshilab dodini ber.

**Chigirtka:**

Sotqin ekansan qovoq,

Jonni og'ritma, ahmoq.

**Qovoqvoy:**

Endi bo'lar holing tang,

Sehrgar bobo yashang!

(Orqasiga qarasa

Sehrgar yo'q. Hayron.)

**Chigirtka:**

Xiyonat qilding bizga,

Aytamiz shohimizga!

**Ko'sak qurti:**

Bizni bo'shatib yubor.

**Qovoqvoy:**

Bekor aytibsan beor.

(Atrofida aylanib

yuradi. Ularning

burniga chertadi.

Qitiqlaydi, rosa kalaka

qiladi. Tomoshabinlarga

kerilib, maqtanib ham

qo'yadi gohida.

Oysholg'om bilan

Lavlagijon nayza

o'qtalغان holda

kirishadi.

Qovoqvoyning qilgan

ishini ko'rib hayratda

qolishadi).

**Oysholg'om:**

Qovoqvoy aka, albatta,

Bizlar qoldik

hayratda.

Bu chindan

qahramonlik,

Yengilibdi

yomonlik.

Ikkovini

bog'labsan,

Mardligingni

oqlabsan,

Endi noming

har tomon

Bo'lib ketadi

doston.

**Lavlagijon:**

Bu ishingni hoynahoy,

Ko'rib qolsa Chanoqvoy,

Rosa qoyil qolardi,

Seni ham tan olardi.

**Qovoqvoy:**

Bog'ladim qo'lu tanin,

Topish kerak qolganin.

**Lavlagijon:**

Qani, do'stlar, buni siz,

Chetga olib chiqing tez.

(Hasharotlarni olib

chiqib ketishadi.

Ularning ketidan

Qovoqvoy ham

maqtanib asta katta-

katta qadamlar tashlab

chiqadi. Qovunjon bilan

Tarvuz kirib keladi.)

**Tarvuz:**

Bugun xursandman,

bugun,

Og'ayni — naynov

Qovun.



(Qo'shiq aytadi.)

Kim ichadi mazza

suv, mazza suv

Sharbatga boy

shundoq u.

O'zi muzday ichsa kim,

ichsa kim,

Deydi: «Oh, oh mazza-

ku, mazza-ku»,

Ichgan yurar

darmonda-darmonda,

Ichmaganlar

armonda-armonda.

**Dehqon bobo:**

(Keladi.)

Yashavor o'g'lim

Tarvuz,

Senga tegibdi-da

so'z.

**Tarvuz:**

Dehqon bobo,

assalom!

Sog'aydingizmi,

tamom,

Ichib ko'ring —

qonasiz,

Tag'in so'rab qolasiz.

Bu yil hosil juda mo'l,

Hasharotga

hammamiz,

Sirayam bermaymiz,

yo'l.


(Shoshib Qovoqvoy

kiradi.)

**Qovoqvoy:**

Kelmadimi Sehrgar?

(Davomi bor.)



## ABADYAT ARDOQLAGAN ALLOMALAR

(Davomi. Boshi o'tgan sonlarda.)

Lavuazeni havoda uchish muammolari va shaharlar ozodaligi qiziqtiradi. U porox tayyorlash

Ushbu ruknni Rustam OBID olib boradi

a'zolari qatorida Lavuazening bo'yniga ham biron jiddiy dalil-isbotsiz, ammo haddan ziyod og'ir ayblar qo'yilgandi. Unda aytishlaricha bu kishilar «Fransiya dushmanlari tegirmoniga suv quyib, xalqni beayov talashgan». Tashqi dushmanlar bilan urush uchun zarur bo'lgan ulkan mablag'ni xalq

do'stlarining o'tinib so'rashlariga ham quloq solmay, yashiringan joyini tark etdi.

6 may kuni Lavuaze ustidan o'lim hukmi chiqarildi. Kimyogar Lavuaze

Bilimim shu yerga yetib keldikim,  
Bilimsizligimni endi tushundim.  
Abu Shukur Balxiy

Buyuk kishilar olmos yanglig'  
noyob va shu qadar serjilodir.  
Sharq naqli

## GAROYIB TAQDIRI KIMYOGAR

texnologiyasini o'zgartirib zaryadlar

cho'ntagini qoqib, shilib olishgan-u aynan o'sha dushmanlarga olib borib berishgan.

Do'stlari Lavuazega yashirinishni maslahat berishdi. Bo'lak chora ham qolmagandi o'zi. Raqiblariga uning hayotidan ham puli ko'proq kerakligini ular juda yaxshi tushunishardi. Darhaqiqat, «jinoyatchi qochib ketgach», uning bor mol-mulki «qonuniy asosda» musodara qilindi. Lavuaze Luvrning eng maxfiy xonalaridan birida ikki kun yashirilib o'tirdi, ammo uchinchi kuni «Soliq undirish» kompaniyasidagi hamkasblari hibsga olinganini eshitgach,

tribunalga iltimosnoma yozib, Lavuazening olim sifatidagi buyuk xizmatlarini inobatga olgan holda qatl muddati kechiktirilishini so'radi. Biroq, inqilobchilar niqobidagi tergovchilar: «Respublika kimyogarlarga muhtoj emas!», deb qisqa javob berishdi. 8 may kuni esa Antuan Lavuazening hayot yo'li gilotinada yakunlandi. O'shanda u 50 yoshda edi.


-Bu boshni kesish uchun bir lahza kifoya qildi, lekin bunday bosh qayta dunyoga kelishi uchun balki bir asr ham kifoya qilmas, - deb yozgandi bu o'limdan xabar topgan matematik Lagranj.

Oradan yana ikki yil o'tgach, Antuan Lavuaze vafotidan so'ng oqlandi. Olim hayotdan bu qadar erta

ketmaganida yana nima ishlar qilgan bo'lardi - buni tasavvur etish ham dushvor. Umrining so'nggi yillarida u biokimyoning murakkab muammolariga, nafas olish va qon ishlab chiqarishdagi kimyoviy jarayonlarga qiziqib qolgandi. Qatl etilishidan bir yil muqaddam shu masalalar ustida bosh qotirib o'tirib, organik kimyoning ilk asoslariga juda-juda yaqinlashib kelgan bir paytida u: «Bu mavzuga qaytaman hali», deb yozib qo'ygan ekan.

Afsuski, qayta olmadi.

(Tamom.)



sifatini yaxshilaydi. O'nlik metrik tizim komissiyasi tarkibida ishlaydi, darslik yozadi. Va nihoyat, u davlat soliqlarini undirishni o'z zimmasiga olgan tashkilotning faol a'zosi, davlat budjetining eng muhim masalalariga dadil aralashib ketuvchi yirik moliyachi, ta'sis kengashi deputati, xazina komissiyasi a'zosi.

Olimning hayotidagi fojiali burilishi nogahonda va juda tez ro'y berdi. Hamma narsa bir haftada ro'y berdi qo'ydi.

1794 yil 2 may kuni, konventda berilgan ma'lumotnomada soliq undirish kompaniyasining boshqa





# TAQRIZ VA TAKLIF

Bugun uning ijod namunalari kitobcha holda bosmadan chiqqanini ko'rib juda xursand bo'ldik.

«Ertaklar yaxshilikka yetaklar» deb nomlangan ushbu to'plamni «Sharq» nashriyoti chop etib, xayri ish qilgan. Kitobchadan Malikaning sara hikoyalari, kichik ertaklari o'rin olgan. Lotin yozuvidagi kitobchalar bizning o'quvchilar uchun juda zarur bo'layotgan bir davrda bu kitobchani Istiqlolning 11 yilligiga sovg'a qilinishi bilan biz Malikani tabriklaymiz.

Kitobga kiritilgan har bir hikoya va ertaklar tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lib,

o'quvchini rostgo'ylikka, mehnatsevarlikka, odob-ahloqqa



o'rgatishga xizmat qiladi.

Malika yaratgan har bir

obraz bolalar uchun ibrat namunasi bo'la oladi, deb o'ylayman. Ertaklarda Malikaning jo'shqin his-tuyg'usi, ona Vatanga bo'lgan mehr-muhabbati, insoniylik juda nozik ta'bo'xshatishlar bilan ifodalangan.

Bu kitob juda oz nusxada chop etilibdi. Kelgusida uning nusxasi ko'paytirilib, Respublikamizdagi har bir bola qalbiga yaxshilik urug'ini sochishiga umid qilamiz.

Hikmatoy

ROZIQOVA,

Ijtimoiy yo'nalishdagi

Respublika Maxsus

gimnaziyasi, Xalq

ta'limi va ochisi.

«Ertaklar yaxshilikka yetaklar» ertagining muallifi yosh, iste'dodli qiz

Malika Rahmonbekova ijtimoiy yo'nalishdagi Respublika Maxsus gimnaziyasini bitirgan. U o'quvchilik yillarida kichik yoshdagi bolalarga juda qiziq ertak va hikoyalar yozib, devoriy gazetalarda, keyinchalik, Respublikamizdagi gazeta, jurnallarda qatnashdi.

Ma'lumki, keyingi yillarda suv tanqisligi, ob-havoning issiq kelishi, turli korhonalardan va transport vositalaridan chiqadigan har xil zaharli tutunlar, ayniqsa, Markaziy Osiyoda mo'tadil havoni saqlab turishda katta ahamiyatga ega bo'lgan Orol dengizida suvning kamayib ketishi bizning hududda ekologik vaziyatni murakkablashtirib yubordi. Ustiga-ustak obodonlashtirish ishlarining yaxshi olib borilmasligi, ko'cha va ariqlarda axlatlarning to'lib-toshib ketganligi, ayrim mas'ul tashkilotlarning yaxshi ishlamasligi «dard ustiga

## EKOLOGIK VAZIYATNI YAXSHILASH - BARCHANING ISHI

chipqon» bo'lmoqda.

Kattaqo'rg'on tumanidagi 34 - o'rta maktabda tashkil etilgan to'garak a'zolari shu va shu xildagi muammolarni qiziqish bilan o'rganmoqdalar. Ular maktab hududidagi mahallalarda bo'lishib, hovli va uylarni, ko'chalarni toza tutish, atrofni ko'kalamzorlashtirish, havoga zaharli moddalarni chiqarmaslik to'g'risida fuqarolar bilan suhbatlar uyushtirmoqdalar.

Olib borilgan izlanishlarni to'plab, tajribalarni almashtirish borasida bir

qator

ishlar

qilindi:

Maktabning

9- «V» sinf

o'quvchisi Feruza Boboyeva o'z izlanishlari, kuzatuvlari, tushuntirish ishlarini jamlagan holda viloyat iqtidorli o'quvchilarining XI slyotida «EKOLOGIYA — XXI ASR MUAMMOSI» mavzusi bilan ishtirok etdi va faxrli birinchi o'rinni egalladi. Shu bilan birga mart oyining oxirida o'tkaziladigan Respublika birinchiligida qatnashish huquqini qo'lga kiritdi.



Hozirgi kunda Feruza o'z ustozlari, ekologiya fani o'qituvchisi Hafiza Hamroyeva rahbarligida katta sinovga tayyorgarlik ko'rmoqda. Maktab jamoasi har tomonlama o'quvchimizning muvaffaqiyatidan ruhlanib, uni qo'llab-quvvatlashga harakat qilmoqda.

J. NURMURODOV,

maktab direktori.

Ha, Dilshod onasini dars vaqtida maktabga boshlab keldi. Bunga sabab bormidi?..

Jismoniy tarbiya darsida o'qituvchimiz Anvar aka maktab atrofini uch marotaba aylanib chiqishimizni buyurdilar. Birinchi kelgan besh nafar o'quvchiga «5» baho qo'yishlarini ham aytdilar.

Biz sinfdoshlar birinchi bo'lib yetib kelish ilinjida musobaqani boshlab yubordik. Ikki marotaba maktab atrofini aylanib chiqqan Dilshod «Men birinchi bo'lib yetib keldim», deb turib oldi. O'qituvchimiz esa yana bir marotaba yugurib kelishini tushuntirdilar.

A m m o

Dilshod qaysarlik qildi va «menga besh baho qo'yasiz», deb Anvar aka bilan ancha tortishdi.

Shunda o'qituvchimiz uning qulog'ini sekingina tortib, «gapga tushunasanmi?» dedilar-da, birinchi

kelgan besh o'quvchiga «5» baho qo'ydilar. Dilshodga esa uch baho nasib etdi.

Bundan ranjigan Dilshod tanaffus bo'lishini ham kutmasdan yig'lab, darsdan chiqib ketdi.

Oradan hech vaqt o'tmay u onasi bilan sinfga kirib keldi. Onasi o'qituvchimiz bilan ancha janjallashdi. Dilshodning haq ekanligini isbotlamoqchi bo'ldi.

Biroq Anvar aka Dilshodning onasiga ortiqcha gapirmadilar. Faqatgina «o'g'lingizga besh kerak bo'lsa, men qo'yib beraveraman», dedilar xolos.

Biz o'quvchilar

ularning suhbatiga aralashmoqchi edik, ammo Anvar aka yo'l qo'ymadilar. Onasi esa: «nega urdingiz, urishga

haqqingiz yo'q», deya shovqin solishdan charchamadi. Natijada bu janjalga atrofda dars berayotgan o'qituvchilar aralashishga majbur bo'ldilar. Hatto bu gap maktab direktorining qulog'iga ham yetib bordi. Ular Anvar akaga tanbeh berdilar.

Oqibatda nafaqat o'qituvchimiz, balki biz ham noqulay ahvolga tushib qoldik.

Aziz tengdoshlar, Dilshodning harakatlarini qanday baholaysiz? Orangizda u kabi o'quvchilar bormi?

Abror ALIMOV,

5- sinf

o'quvchisi.

## Tarbiyaviy soatlarda o'qing va muhokama qiling.

Bugun maktabimizda mish- mish tarqaldi.

Emishki, G'ayratlarning uyidan yong'in chiqibdi. O'zi esa og'ir ahvolda kasalxonaga tushibdi.

G'ayrat mening eng yaqin do'stim bo'lgani uchun ham bu mish- mishdan qattiq ta'sirlandim. Ishqilib, barchasi yolg'on bo'lsinda, degan xayol bilan o'sha zahotiyuq ularning uylari tomon yo'l oldim.

Do'stim G'ayrat ancha o'yingaroq bola. Doim ko'chada. U oilada bosh farzand. Hali maktab yoshiga yetmagan ikki ukasi bor. Onasi ishdan kelguncha ularga qarab turadi. Ko'chada o'ynatadi, ovqatlantiradi. Ko'pincha esa ularni

uyda yolg'iz qoldirib, o'zi o'ynagani amallab ochishibdi va bolalarni asrab qolishibdi. Ko'ngilsiz voqeadan dovdirab qolgan G'ayrat ukalarim uyda qoldi, deb o'ylab, o'zini uy ichkarisiga otibdi...

## TUZALIB KETARMIKAN?

kiradi. Bir necha marotaba aytgandim-a, ukalaringni yolg'iz qo'yma, deb. Mana oqibati. O'sha kuni ukalari divanda o'tirib olib, gugurt o'ynashibdi. Olov devordagi gilamga tegib, tutay boshlabdi. Bir ozdan so'ng uy alanga ichida



Hozir do'stimning ahvoli juda og'ir. Shifokorlarning aytishicha, tirik qolgan taqdirida ham nogiron bo'lib qolar ekan. Biz sinfdoshlar uning butunlay sog'ayib ketishini juda-juda xohlaymiz. Biroq...

Muzaffar SAMADOV,

Qashqadaryo viloyati,

6- sinf o'quvchisi.

**SEN TUG'ILGAN KUN***(Nevaram Qodirga)*

Tabriklayman seni aziz nevaram,  
Kuz faslining ilk ayyomi-birinchi,  
Tug'ilding Istiqlol kunida sen ham,  
Cheksiz erur keksa bobong quvonchi.  
Buvijoning seni ko'rolmay ketdi,  
Oying esa seni kutdi har kuni.  
Buving dilin oyingga bayon etdi:  
«Siz o'g'il ko'rasiz, Qodir deng uni!»  
So'ng dedi u: «Bo'lar bayram, shodlik, to'y,  
Qodirjon ulg'ayar yangi zamonda,  
Menga nasib etmas, lekin dilda o'y,  
Yashar nevaram hur O'zbekistonda».  
Buvijoning bashoratini,  
Eslayman, yashar u sog'inch dilimda,  
Ko'rmadi Istiqlol sharofatini,  
Lekin ko'rdi seni ozod elimda.  
Navqiron avlodsan yangi zamondan,  
Nevaram, qutlayman buving nomidan.  
Istiqlol qirqida sen ham qirqqa kir,  
Yuz yoshlik to'yida bo'lg'in to'ychi pir.

*Bobong NAZARMAT.***Otalar yozadi****QADRLANGAN****QARIYA**

Hassaga tayanib, odimlardi chol,  
Oyoqlar darmonsiz, bel bukik, behol...  
Olisdan jajji nevarasi ko'rib,  
Qoshiga talpindi shoshib, yugurib.  
-Dodajonim! - dedi jajji nevara  
(Nevaraning bobosiga mehrini qarang!)  
-Dodajonim, menga qo'lingizni bering!  
Qo'lini berdi chol, nevarasi esa tizzasiga teng.  
Tayanib bo'lsa hamki tayanch boridan  
Chol dadil odimlay boshladi birdan.

**NURBEK****MUALLIM**

Bilimiga qo'shib u mehr beradi,  
Olamni tanitib, seyr beradi.  
Otamizdek bizga beradi ta'lim,  
Onadek mehribon, aziz muallim.

Mustaqil hayotga oshno qildingiz,  
Har shogirdni o'zingizga farzand bildingiz.  
Sizning mehringiz-la o'sib-ulg'aydim,  
Ta'zim qilgum sizga, aziz muallim.

Ko'zimning gavhari - ota-onamdir,  
Qorachig'im esa o'zingiz ustoz.  
O'zim ham ustozlik qilyapman bu kun,  
Sizni qancha e'zozlasam shuncha oz.


**MAJNUNTOLO**

Majnuntol shoxlari doimo egik,  
Terak esa osmonga qarab o'sar tik.  
Terakdek tik bo'lgan yaxshi-yu ammo,  
Majnuntolda ko'pdir,  
odob, kamtarlik.

*Nasiba TURDIQULOVA,**Toshkent shahar,**Sirg'ali tumanidagi**322 - maktab o'qituvchisi.***Ustozlaringiz  
ijodi****USTOZLARINGGA**

Deydilar, «Otangdan ulug'dir ustoz»,  
Muqaddasdir hatto qadami poyi.  
Har inson qalbiga mehringiz hamroz,  
Sizlarsiz bu dunyo jaholat qa'ri.  
Mudroq tabiatning ko'zlarin ochib,  
Ilm beshigiga hikmatlar aytgan.  
Haqiqat nurlarin oftobdek sochib,  
Ma'rifat bog'ini dilda yaratgan.  
Bizday nihollarni avaylab ekib,  
Ketdi ko'z nuringiz, toldi qo'lingiz.  
Kitoblar qatida durdek to'kilib,  
O'tib bormoqdadir umr yo'lingiz.  
Ilm siyohidan berib pardozi,  
Aqlimiz bezagan zotlar sog' yursin.  
Osmonday bag'ri keng sizday ustozlar  
Bizday shogirdlarni yetkazib tursin.

*Dilbar MUHAMMADALIYEVA,**O'zbekiston Davlat Jahon Tillari**Universiteti aspiranti.*



## Bizning to'garak

### QALB GO'ZAL BO'LSIN

Shirin so'z albatta qalbning bezagi,  
Insonlarning qalbi nurlarga to'lsin.  
Chiroy ham insonga kerakdir, ammo,  
Faqat chehrang emas, qalb go'zal bo'lsin.  
Bog'larda sayrasa ko'plab bulbullar,  
Gullar xursand bo'lib ochilsin, kulsin.  
Bulbulsiz chorbog'da ne darkor gullar,  
Chehrang go'zal emas, qalb go'zal bo'lsin.  
O'zgalar dilini og'ritma aslo,  
Hayot yo'ling ezgu ishlarga to'lsin.  
Imkon qadar faqat yaxshilik qilgin,  
Chehrang go'zal emas, qalb go'zal bo'lsin.

*Nigora RUSTAMOVA,  
Qashqadaryo viloyati,  
Shahrisabz tumani, O'roq Ibragimov nomli  
jamo'a xo'jaligi.*

### AYYOMINGIZ MUBORAK!

Ayyom muborak bo'lsin,  
Yo'lingiz nurga to'lsin.  
Biz bolalar baxtiga,  
Umringiz uzoq bo'lsin.

Sadoqat, do'stlik nima,  
Bizlarga o'rgatdingiz.  
Keksani hurmatlashni,  
Amalda ko'rsatdingiz.

Qalbimizga yo'l topib,  
O'qitdingiz bizlarni.  
Bugun shogirdlaringiz,  
Tabriklaydi sizlarni.

Bilim sari yetaklab,  
Omad tilab etaklab.  
Qilgaymiz Sizga ta'zim,  
Mehri daryo ustozim.

*Madina RASULOVA,  
Poytaxtimizdagi  
Sirojiddinov nomli  
akademik litsey talabasi.*



*Sahifamizni xorazmlik tengdoshingiz,  
Urganch shahridagi 16 - maktabning 9-sinf  
o'quvchisi Farog'at Jabborova chizgan  
rasmlar bilan bezadik.*



### MAKTABIM

Maktabjonim, jonajonim,  
Yana keldim men yoningga.  
Eshigingni ochgin tezroq,  
O'zim otay quchog'ingga.

O'ynab-kuldim ta'til bo'yi,  
Ko'p joylarda bo'ldim men.  
Oromgohda zo'r dam olib,  
Kuch-quvvatga to'ldim men.

Har kun kitob-daftarlarim,  
Bir-bir o'pib qo'yaman.  
Sog'inganman partam, doskam,  
Endi o'qib to'yaman.

*Dilobar MIRSOATOVA,  
Toshkentdagi  
187 - maktabning  
6 - «D» sinf o'quvchisi.*

### YURT SHA'NIGA

Vatan, mening ko'zimda bo'l,  
Butun tanam, o'zimda bo'l,  
Har bir ishim, so'zimda bo'l,  
Sendan judo bo'lmasam bas.  
Vatan, munis onam bo'lgin,  
Yorug', ravshan xonam bo'lgin,  
Jondan aziz olam bo'lgin,  
Sendan judo bo'lmasam bas.  
Sabrimu bardoshim bo'l,  
Osmonimu quyoshim bo'l,  
Hamrohimu yo'ldoshim bo'l,  
Sendan judo bo'lmasam bas.  
Vatan, mening qarog'im bo'l,  
Chamanim bo'l, gul bog'im bo'l,  
Goho qo'lda yarog'im bo'l,  
Sendan judo bo'lmasam bas.

*Nodirbek RAHIMOV,  
Buxoro viloyati, Shofirkon  
tumanidagi Ahmad Donish nomli  
maktabning  
9-sinf o'quvchisi.*



## CHISTON VA TOPISHMOQLAR

Eramizdan ko'p avval, minginchi yil boshida,  
Ulkim yarolg'on erdi shams e'tiqod haqinda,  
Aylandi Zardushtiyning muqaddas kitobig'a,  
Ne deb atalmish erkon bu muqaddas obida?

(Avesto)

Aylab o'lim sharobin no'sh,  
Yog'iy sari bordi «yurtturush».  
Yaksart bo'yidan yovni yiroq ayladi,  
Beoqibat erur nobop urush.

(Shiroq)

Tongda tushib uyg'otar,  
Dov-daraxtni yayratar.  
Illatlarin yo'q qilar,  
Xastaga malham bo'lar.  
Keksalarning huzuri,  
Foydali Quyosh ...




(nuri)

Yaproqlari shildirab,  
Sho'x-sho'x qarsak chaladi.  
Kuz fasli liboslari,  
Atlasdek tovlanadi.

Ham mevalar beradi,  
Chiroy qo'shar borliqqa.  
Ham havoni tozalar,  
Negiz bo'lar sog'liqqa.

Topolmay bo'lma karaxt,  
Nomidir uning ...



Nargiza PAYZIYEVA,  
Alisher Navoiy nomidagi  
Nafis san'at litseyi o'quvchisi.



juda o'xshash bo'lsa ham,  
ichki olami ikki dunyo ekan.  
Anora ochiqko'ngil,  
mehribon, saxiy qiz ekan.  
Manora esa aksincha, ichi

ko'rsatib. Bu shum xabardan  
saroydagilar iztirobga  
tushishibdi. Vazir aza  
ochibdi, xotini dod solib  
yig'labdi. Manora esa rejasi  
silliqqina amalga oshganidan

beribdi. Manora ham bo'sh  
kelmay: «U aldayapti,  
Anora menman» deb turib  
olibdi. Shunda shoh bir  
oqilona yo'l tutibdi:  
-Men qizimga yetti

## YOLG'ONNING MISI CHIQDI

Qadimda Sulton  
ismli odil shoh  
boshqaradigan bir  
mamlakat bo'lgan ekan.

Bir kuni Sulton shohning  
xotini farzand ko'ribdi.  
Oradan ikki kun o'tgach,  
uning vaziri ham farzandli  
bo'libdi. Ikkala oilada ikki  
qiz dunyoga kelibdi.  
Shohning qiziga Anora,  
vazirning qiziga esa  
Manora deya ism  
qo'yishibdi. Qizaloqlar kun  
sayin emas, soat sayin  
ulg'aya boshlashibdi.  
Ajablanarlisi, qizaloqlar ikki  
tomchi suvdek bir-birlariga  
juda o'xshashar ekan.  
Egizaklardek bir xil kiyinib  
yurisharkan. O'zlari  
ismlarini aytmagunlaricha  
hatto ota-onalari ham  
ajratolmay qolishar ekan.  
Lekin tashqi ko'rinishlari

qora, baxil, hasadgo'y  
qiz ekan. Anoraning  
o'rnida shoh qizi bo'lib  
qolishni juda-juda xohlar  
ekan. O'ylay-o'ylay, bir  
kuni shum niyatni  
ko'ngliga tugib, Anorani  
sayohatga taklif qilibdi.  
Uzoq yo'l bosib, chanqab  
xorigan qizlar daryo  
bo'yiga suv ichgani  
borishibdi. Manora payt  
poylab turibdi-da, suv  
ichayotgan Anorani  
shiddat bilan oqayotgan  
daryoga itarib yuboribdi.  
O'zi esa ko'ziga yosh olib,  
saroyga kirib boribdi:

-Otajon, yo'lda falokat  
ro'y berdi. Qaroqchilar  
Manorani o'g'irlab ketishdi,-  
debdi o'zini Anora qilib



xursand bo'lib, shoh qizi  
bo'lib yashay boshlabdi.

Tasodifni qarangki, suvda  
oqib ketayotgan Anorani bir  
cho'pon ko'rib qolib,  
qutqarib olibdi. Saroyga olib  
kelib bor gapni shohga aytib

ajdodining kimligini  
o'rgatganman. Hozir  
qaysi biringiz ularning  
nomlarini aytib  
bersangiz, mening  
qizim bo'lasiz,-debdi.

Anora avlod-  
ajdodlarining nomlarini  
birma-bir sanay ketibdi.  
Manora esa mulzam  
bo'lib qolibdi.

Qissadan hissa shuki,  
yolg'onning mis qiz  
yildan keyin ham  
chiqadi. Shuningdek,  
har bir o'g'il-qiz yetti  
pushtining kimligini bilishi  
lozim.

Munisa AVAZOVA,  
Toshkentdagi  
85 - maktabning  
6- «A» sinf  
o'quvchisi.

## «TONG YULDUZI»M

«Tong yulduzi» aql charxi,  
Bilimimiz oshirar.

Krossvordu skanvordi,  
Boshimizni qotirar.

Hilola EGAMBERDIYEVA,  
Akmal Ikromov tumanidagi  
312 - maktabning  
6 - «A» sinf o'quvchisi.

## "Tong yulduzi"ga



индекс  
198

БОЛАНГИЗ ГАЗЕТА УҚИЙДИМИ?

Она yurtig - olin bekligig  
**TONG Yulduzi**  
№198/6172  
2002 yil  
23 sentabr,  
dushanba

Хар ҳафта почтачи амаки фарзандингиз номини айтиб, унга газета олиб келадими? Бир вақтлар ўзингиз, ота-онангиз, бобо-буваларингиз ўқиган газетани наҳотки болангиз ўқимаётган бўлса?!

Амиз ота-оналар! Болалигингизда ўз газетангизни қанчалар орзиқиб кутардингиз-а? Каттиққўл устозларингиз мактаб эшиги олдида туриб, обуната пул келтирдингиз деб сўрагани ҳам едингиз-длар?.. Энди, ҳамма нарса эркин. Аммо болаларга дарсингни қил деб дакки бермасак, ҳаммалари ҳам осонгина дарс қилиш учун ўтиришмайди.

Шундай экан, болалар маънавиятини бойитадиган, уларга мамлакат сийсати, тинчлик ва инсонпарварлик роҳидан сабоқ берадиган «Тонг юлдузи»ни ҳар бир болани ўқини шарт.

Чунки, «Тонг юлдузи» Республика болалари ва ўсмирларининг ягона газетасидир!

ЎЗБЕКИСТОН БОЛАЛАРИ  
★ ВА ★  
ЎСМИРЛАРИНИНГ ГАЗЕТАСИ



Она yurtig - olin bekligig  
**TONG Yulduzi**

О'zbekiston bolalari va  
o'smirlarining gazetasi

Muassislar:  
O'ZBEKISTON  
MATBUOT VA AXBOROT  
AGENTLIGI,  
O'ZBEKISTON  
RESPUBLIKASI XALQ  
TA'LIMI VAZIRLIGI,  
«KAMOLOT»  
YOSHLAR IJTIMOY  
HARAKATI,  
«SOG'LOM AVLOD  
UCHUN» XAYRIYA  
JAMG'ARMASI

BOSH MUHARRIR:  
Umida ABDUAZIMOVA  
TAHRIR HAY'ATI:  
Shuhrat AHMEDOV,  
Jamoliddin FOZILOV,  
Oynisa  
MUSURMONOVA,  
Qahramon  
QURONBOYEV,  
Feruza JALILOVA  
(Bosh muharrir  
o'rinbosari),  
Po'lat MO'MIN,  
Mukarrama MURODOVA,  
Tohir MULLABOYEV,  
Ergashvoy SARIQOV.

Noshir «Ijod dunyosi»  
nashriyot uyi.

Gazeta «Ijod dunyosi»  
nashriyot uyi kompyuter  
bo'limida terib sahifalandi.  
Hajmi A-3, 2 bosma  
taboq.

«Sharq» nashriyot-  
matbaa aksiyadorlik  
kompaniyasida 46.291  
nuxxada ofset usulida bosildi.  
Korxonaning manzili: «Buyuk  
Turon» ko'chasi, 41.  
Buyurtma № Г-861  
Gazetani  
Muhabbat MAHSUDOVA  
sahifaladi.  
Navbatchi:  
Muharrama PIRMATOVA

Ro'yxatdan o'tish tartibi  
№ 000137  
Manzilimiz: 700129,  
Toshkent shahri, Navoiy  
ko'chasi, 30-uy.

Tel: 144-63-08